

MILLIY QADRIYATLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Tilavoldiyeva Validaxon Ma'murjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13919100>

Kirish: Qadriyatlar har bir millatning o'tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko'rsatib turuvchi eng muhim omillardan biri. Olimlar qadriyatlarni milliy, diniy, mahalliy, mintaqaviy va umuminsoniy kabi bir qator turlarga shartli bo'ladilar. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko'plab milliy qadriyatlarga tayanib shakllanadi va asrlar osha takomillashib boraveradi.

Barchamizga ma'lumki bugungi tezkor globalashuv sharoitida ham o'z milliy moddiy va ma'naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o'ziga xos an'analari, urf-odatlar va o'lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Tabiiyki, millatlarning bebaho qadriyatlari shunchaki bir-ikki yoki o'n-yigirma yil ichida paydo bo'lib qolmaydi. Chunki xalq diliga chuqur o'rnashgan biror-bir muhim urf-odat, kiyim-kechak, kundalik hayot tarziga xos alohida "narsa"ning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq asrlarni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida ma'lum bir qarash, odat, tushuncha, tajribalar shafqatsiz zamonlar, bir necha avlodlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tsagina yanada sayqal topadi, rivojlanadi, xalq hayotida o'z o'rnini egallaydi. Zamonlarning baland-past dovonlaridan o'tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma'naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma'naviyatida, ongu shuurida, o'zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo'lgan munosabatida, qisqasi, har bir tashlagan qadamida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma'naviyatining ko'zgusi deyishgan. Insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyoti bir tekis kechmagan. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-tarixiy hodisalarga turlicha munosabatda yondashish natijasida insonlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, mentaliteti shakllanishi barobarida, milliy qadriyatlar ham takomillasha borgan. Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlar, tarixi, madaniyati, an'analarini, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun ham qadriyatlar millatlarning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi. Xalqimizning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga – Vatanga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, mehmonga, o'zidan kattalarga ehtirom, o'zidan kichiklarga izzat-ikrom, ayniqsa ota-ona, qarindosh-urug'larga doimiy beg'araz hurmat va xizmat ko'rsatish, birovning haqiga, ayniqsa, yetim-yesirlarning, qo'ni-qo'shnilarining, ojiz-notavonlarning haqiga xiyonat qilmaslik, orttirgan mol-dunyosidan xayr-ehson qilish, har qanday sharoitda ham hayo va andisha saqlash, ahli ayoli – oilasini asrab-avaylash singari juda ko'plab insoniy fazilatlar milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. Afsuski, xalqimiz asrlar davomida e'zozlab kelgan bir qator qadriyatlarni keyingi bir asrdan ko'proq vaqt ichida jamiyat hayotidan quvg'in, xalq xotirasidan o'chirishga harakat qilindi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach zahmatkash xalqimizning tarixiy xotirasini, qadimgi urf-odatlar, an'analari, qadriyatlarini tiklash va e'zozlash, muqaddas qadamjolarini asl holiga qaytarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda faqat tubjoy aholisininggina tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanilmasdan, shu yurtda istiqomat qiluvchi yuzdan ortiq millat va elatlarning ham nodir qadriyatlari kamol topishiga e'tibor qaratildi. Har to'kisda bir ayb yoki guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, qadriyatlarimizni qo'llab-quvvatlash, ularga qat'iy rioya etish borasida ham suiiste'molliklarga

yo'l qo'yilyapti. Internetning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi, ijtimoiy tarmoqlarda har qanday ma'lumot yoki xabarlarining yashin tezligida tarqatilishi avj olayotgan shunday bir paytda qadriyatlarimiz toptalishiga olib kelayotgan ayrim nuqson va qusurlardan ko'z yumib bo'lmaydi. O'tgan yilning oxirigacha to'y va marosimlardagi dabdabalar haqidagi shov-shuvli xabarlar ijtimoiy tarmoqlardan tushmagan edi. Quvonchli tomoni shundaki, bugun bu kabi dabdababozliklarga barham berilmoqda. Milliy va diniy qadriyatlarimizda ota-onaning qadr-qimmati ko'klarga ko'tarilganligini hech kim inkor eta olmaydi. Ammo ayrim tanbal farzandlar ota-onasiga g'amxo'rlik qilish o'rniga, rahmdilroqlari yolg'iz qolgan keksa otasi yoki onasini "Saxovat uyi"ga eltib tashlamoqda, razilroqlari esa ota-onasidan tezroq qutilish uchun ularga qo'l ko'tarmoqda, ma'naviy va jismoniy zulm qilmoqda, hatto tavqila'natli "padarkush"ga aylanib qolmoqdalar. Nega? Farzand ota-onaning dilbandi, ota-onaga ularsiz hayot rang-barangligining bir daqiqasi ham tatimaydi. Ammo bugungi kunga kelib ota deyishga ham til bormaydigan ayrim "otachalar" xotinini xiyonatda ayblab, "bu mening farzandim emas", deb o'z pushti kamaridan bo'lgan bolasidan sharmandalarcha voz kechyapti, farzandlarini qon-qaqshatib, oilasini tashlab ketyapti, ro'zg'oridagi bor budini bir shisha aroqqa almashib, guldek farzandlari, xotini hayotini zindon azobiga aylantirmoqda. Har qanday qirg'in-barot urushlar, yillab davom etgan ocharchilik, qahatchilik, taqchillik, tanqislik, zulm-istibdod avj olgan davrlarda ham ayollarimiz o'z onalik sha'ni, ayollik iffati, hayo-ibosini, islomiy iymon-e'tiqodini yo'qotmagan, sotmagan edi. Endi-chi? Ustida yal-yal yonadigan atlasu kimxob liboslar, turq-u tarovati binoyidek kelishgan yosh juvonlarning qayerlardadir erkak ovlashi, oilasi, yurtdoshlari obro'-e'tibori, nomus-u orini yerga bukib, ularning ta'na-dashnomlarini bir chaqaga ham olmasligi qaysi qadriyatga mos keladi? Ayrimlari esa kasofat qilmishlari tufayli ona bo'lishdek ulug' baxtdan mosuvo bo'lib, nikohsiz orttirgan farzandini o'zi bo'g'ib yoki sellofan xaltaga solib o'ldiryapti, chaqalog'ining ko'ksiga tosh bog'lab anhorga cho'ktiryapti, hojatxonaga, ko'cha-ko'y, xiyobonlarga tiriklay tashlab ketyapti. Axir besh begona emas, o'z farzandi, jigarbandiniya. Hech bir hayvonda yo'q bunday odat ayollarimizda qayerdan paydo bo'lyapti?! Xalqimiz qadimdan qo'shnining qo'shnida haqi bor deb, yon qo'shnilarini ulug'lab kelgan. Shuning uchun ham qo'shnilar bir-birlarining izzat-hurmatini joyiga qo'ygan. Biror tansiq taom pishirsa, yaqin qo'shnilariga, albatta, bir kosa ilingan, bir-birining holidan xabardor bo'lib turgan. Biz-chi, biz bugunga kelib bordi-keldi qilish tugul, yonimizda yashayotgan qo'shnimizni, uning bolalarini ham tanimaymiz. Hatto oyda bir marta ota-onamizni, tug'ishganlarimizni yo'qlashni-da odat qilmaymiz, paysalga solamiz. Hovli qursak, uyimiz tomini qo'shnining tomidan ikki qarich balandroq qilmasak, shipi olti metr, xonalari o'nta bo'lmasa, ko'nglimiz aslo to'lmaydigan bo'lib qoldi. Aslida ota-bobolarimiz yangi imoratini qo'shnisi yashab turgan binodan bir qarichcha pastroq qilib, kamtarona qurganlar. Biz notavonlar esa yangi asrga kelib hovli-joy, mashina, narsa-buyum, mol-u dunyoning hirsiga berildik, hashamat, maishat, isrofgarchiliklarga to'la ziyofatlar, ko'r-ko'rona taqlid va zo'rma-zo'rakilikka asoslangan dabdabali to'y-tomoshalarning quliga aylanib boraverdik. Mahalla qadimdan qadriyatlar qadrlanadigan joy. Shuning uchun ham bir bolaga yetti mahalla ota-ona, deb aytishadi. Ammo biz o'z ishimiz, o'z uyimiz, o'z tashvishlarimiz bilan shu darajada o'ralashib qolganmizki, o'zimiz mahalla ishlariga ko'maklashish o'rniga mahalladan yo'qlatsalar ham hafsalasizlik, loqaydlik qilamiz, mahalla tadbirlariga bosh-qosh bo'lmaymiz. Mahallada yoki biror oilada favqulotda bir holat yuz bermaguncha oqsoqollarga qo'shilib mahallani bir aylanib, keksalardan hol so'rab, bebosh yoshlarni tergamaymiz.

Xulosa: qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo'lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, o'zaro hurmat, birodarlik, bag'ri kenglik, mehribonlik kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e'zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo'shib boyitilishi, rivojlantirilishi baxtli kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.